



DAVLATIMIZNING ASOSIY QONUNI – KONSTITUTSIYA

Ismailov Oralbay Qanatbaevich

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti

Omirbaeva Aygul Keñesbay qizi

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va suv xo‘jaligi fakultetining

Yurisprudensiya ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada konstitutsianing vujudga kelish tarixi, mustaqil O‘zbekistonda konstitutsianing vujudga kelishi, konstitutsianing davlatimiz va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashdagi ahamiyati haqida ma’lumot keltirilgan

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, davlat, jamiyat, qonun, Prezident, Oliy Kengash, Deklaratsiya

Konstitutsiya (lotincha "Constitution" - tuzilish, belgilash) - davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolatlari hamda shakllanish tartibini, saylov tizimini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlarini, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beruvchi asosiy qonun. "Konstitutsiya" atamasi Qadimgi Rimda mashhur bo‘lgan (imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Amir Temurning "Temur tuzuklari" Sharq va Osiyo mamlakatlari sivilizatsiyasiga xos bo‘lgan konstitutsiyaviy hujjat bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Asosiy qonunimiz hisoblangan Konstitutsiyamizning yaratilishiga e’tibor qaratsak, mamlakatimiz Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari olis yo‘ldagi izlanishlari natijasi ekanligining guvohi bo‘lamiz. Asosiy qonunimiz - Konstitutsiyamiz yaratilishida



uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanilgan. Bugungi O'zbekiston qadimiy Xorazm va So'g'diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o'zbek xonliklari, ma'rifatparvar ajdodlarimiz, xalqimizning tarixiy an'analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko'p asrlik orzusini mujassam etgan. Shuningdek, manfaat va intilishlarimizdan kelib chiqib, asosiy qonunimiz sharq va g'arb, janub va shimalning 97 ta davlati to'plagan ilg'or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan. Shu o'rinda suveren O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini tayyorlash, muhokama qilish, qabul qilish va uning amal qilishi yo'lidagi huquqiy bosqichlarni bu boradagi eng muhim tarixiy voqealar sifatida sanab o'tish lozim. Shuni aniq ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimizning siyosiy-huquqiy ongingin namunasidir. Asosiy qonunimiz hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin yashashning qonuniy kafolati bo'lmoqda. Aslida, Konstitutsiyaning yaratilish tarixi - bu mustaqillik uchun kurashning ajralmas qismidir. Mustaqillikdan oldin o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida keskin va murosasiz tortishuvlar bo'lib o'tganligi beziz emas. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida [1] davlat tili haqida ma'lumot berib o'tilgan. Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi huquqiy qadamlardan biri - Prezidentlik institutining tashkil etilishi va yangi davlat ramzlarini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzilishi bilan bog'liq. Mamlakatimiz hayotidagi bu g'oyat muhim voqealar 1990-yilning mart oyida bo'lib o'tganini eslash o'rinnlidir. O'sha paytda, ya'ni Mustaqilligimiz e'lon qilinishidan ancha oldin, o'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengashning birinchi sessiyasida sobiq ittifoq tarkibidagi respublikamizda Prezidentlik lavozimi joriy etildi, davlat ramzları haqidagi masala muhokama qilinib, bu bo'yicha maxsus komissiya tuzildi. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi ilk bor aynan shu sessiyada ilgari surildi. Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi ikkinchi huquqiy qadam - "Mustaqillik deklaratsiyasi"ning e'lon qilishi hisoblanadi. O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1990-yil 20-iyunda e'lon qilingan "Mustaqillik deklaratsiyasi"ning [2] 8-bandida O'zbekiston "o'z taraqqiyot yo'lini, davlat nomini belgilaydi va davlat ramzlarini (gerb, bayroq, madhiya) o'zi ta'sis etadi" degan qoida mustahkamlangan. Deklaratsiyaning 12-bandi esa ushbu hujjat respublikaning "yangi Konstitutsiyasini

ishlab chiqish uchun asos" bo'lishi qayd etilgan. O'shanda bunday mazmundagi hujjat sobiq ittifoq hududida birinchi bo'lib O'zbekistonda qabul qilingan edi. Konstitutsiyani yaratish yo'lidagi uchinchi huquqiy qadam - Konstitutsiyaviy komissiyaning tashkil etilishiga borib taqaladi. Oliy Kengash qarori bilan 1990-yil 21-iyun kuni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligidida davlat arboblari, deputatlar, mutaxassislardan iborat 64 a'zodan iborat Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi va Konstitutsiya loyihasi ushbu komissiya tomonidan 2 yildan ortiq vaqt davomida tayyorlandi.

Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga kiritilgan Konstitutsiya loyihasiga 80 ga yaqin o'zgartish, qo'shimchalar taqdim etildi va anqliklar kiritildi. Parlament deputatlari tomonidan loyiha birma-bir muhokama qilinib, unga yana bir qator o'zgartirishlar kiritilganidan so'ng, 1992-yil 8-dekabr kuni bosh qonun qabul qilindi. Shu kundan boshlab, 8-dekabr - umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. Shunday qilib, O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgan sanadan boshlab dunyo miqyosida yangi, suveren davlat shakllangan bo'lsa, birinchi Konstitutsiyamiz qabul qilingan kuni mamlakatimiz yangidan tug'ildi, haqiqiy mustaqilligimizga mustahkam huquqiy poydevor qo'yildi. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi yangi mustaqil jamiyatning ishonchli huquqiy kafolatlarini shakllantirdi va mustahkamladi. Asosiy qonunimizga bunday yuqori va xolis baholar berilishi bejiz emas. Buni, jumladan, quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, Konstitutsiyamiz haqiqatan ham demokratik Konstitutsiyadir. Tarixda sinalgan, umuminsoniy qadriyatlarni, xalqaro andozalarni o'zida mujassam etgan hujjatdir.

Ikkinchidan, Konstitutsiyamiz eng rivojlangan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgan. Bunda biron-bir davlatning tayyor Konstitutsiyasini nuqtayi nazardan ko'chirib olish yo'lidan borilmay, balki eng ilg'or xorijiy davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalarini o'rganganligi, shuningdek, xalqimizning huquq va manfaatlarini himoya qiladigan normalarni o'z ichiga olganligi bilan yakunlanadi.

Natijada bosh qomusimiz jahon miqyosida ham har qanday rivojlangan davlatlar Konstitutsiyasi bilan erkin kuch sinashib kelmoqda.

Uchinchidan, Konstitutsiyaning g‘oya va normalari o‘zbek xalqining chuqr tarixiy ildizlariga asoslangan bo‘lib, u ko‘p asrlik tajriba va ma’naviy qadriyatlarni, buyuk ajdodlarimizning huquqiy merosini o‘z ichiga olgan. Mamlakatimizda amal qilib turgan konstitutsiyaviy huquq normalari O‘zbekistonning davlat suvereniteti, shaxsiyatning oliy qadriyat ekanligi, milliy davlatchilikning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettirgan [3]. Shuningdek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buning yaqqol dalili sifatida konstitutsiyamizdagi so‘nggi o‘zgarish va qo‘sishimchalar butunlay yangilandi. Ya’ni, yangilanish natijasida bosh qomusimizdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga ko‘paydi. Umuman olganda, konstitutsiya 65% ga yangilangan [4]. Xususan, inson huquqlarini himoya qiladi, ularning huquq va erkinliklari kafolatlari mustahkamlanadi, yurtimizning sharaflı kasb egallari bo‘lgan ustozlarimiz uchun yangi me’yorlar o‘z o‘rnini egalladi, ommaviy axborot vositalari faoliyatiga ham alohida e’tibor qaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Davlat boshqaruvi tizimida bir qancha o‘zgarishlar kiritildi. Bularning barchasi - suveren, demokratik, huquqiy davlatda inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat ekanining yaqqol dalili desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya butun huquqiy tizimning asosi bo‘lib xizmat qiladi, chunki huquqning rivojlanishi Konstitutsiyadan boshlanadi, uning o‘zi boshqa qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarga hayot bag‘ishlaydi. Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchi ham shuni ifodalaydi. Qolgan barcha huquqiy hujjatlar asosiy qonun - Konstitutsiyadan kelib chiqadi va unga muvofiq bo‘lishi kerak. Bu esa, asosiy qonunning yuridik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi www.lex.uz
2. Mustaqillik Deklaratsiyasi www.lex.uz
3. O.T.Husanov "Konstitutsiyaviy huquq" darslik - T-2022.

4. <http://kun.uz>

